

MIRZACHO‘L VOHASINING O‘SIMLIKLAR VA HAYVONOT DUNYOSI

Musurmanova Mohinur Murot qizi

Guliston davlat universiteti

Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrası v.b dotsent

joniqulova95@mail.ru

Turdimetov Shaxobiddin Muxitdinovich

Guliston davlat universiteti

Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrası professori

turdimetov1970@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Mirzacho‘l vohasida tarqalgan o‘simliklar va hayvonot olami haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Mirzacho‘l tekisligining asosiy qismi chala cho‘l o‘simliklari. Tuproqdagi hayvonlar organizmining asosiy funksiyasi organik moddalarni o‘zgartirishdir.

Tayanch so‘zlar: tuproq, bo‘z tuproq, sug‘oriladigan tuproq, loy, qumoq, qumloqlar, galofit, saprofag, ildizi va ildizpoya, yomg‘ir chuvalchang.

KIRISH

Mirzacho‘l tabiiy o‘simlik qoplami, uning shakllanishi va o‘zgarishi haqidagi ma‘lumotlar N.I.Akjigitovanning ishlarida yoritilgan [2.54; 41-c., 2.53; 120-180-c.]. N.I.Akjigitova sho‘rlangan maydonlarda o‘sadigan o‘simliklarning tavsifini keltirgan bo‘lib, sho‘rga chidamlilik yuzasidan ham o‘z fikrlarini bildirgan. Markaziy Osiyo, shuningdek, Mirzacho‘l vohasi galofit o‘simliklari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Shuningdek, Mirzacho‘l o‘simliklari bo‘yicha ma‘lumotlar Ye.P.Korovin ning [2.71; 401-420-c.], ishlarida ham yoritilgan.

Ular o‘z ishlarida bahorgi va yoz-kuzgi o‘simliklar haqida ma‘lumot bergan. Bahorgi o‘simliklar tavsifi bo‘yicha muallif Mirzacho‘l hududini to‘rtta qismga bo‘lgan, bu hududning geomorfologik hudulariga mos tushadi:

- 1) Mirzacho‘lning tekislik qismi;
- 2) Qizilqumoldi qumli va qumloqli to‘lqinsimon tekislik va zamonaviy Sirdaryo vodiysi;
- 3) tekisliklar;
- 4) tog‘ yonbag‘irlari.

Sho‘rlanmagan va kuchsiz sho‘rlangan hamda loy, qumoq, qumloqlar egallagan Mirzacho‘lning tekislik qismi uchun qiyoy-qo‘ng‘irboshli formatsiya–piyozli qo‘ng‘irbosh (Poa bulbosa) va qiyoy (Carex pachystylis)larni ajratilgan va ularning tavsifi haqida ma‘lumotlar berilgan. Bu o‘simliklar yopiq formatsiya nomini olgan bo‘lib, ildizi va ildizpoyasi yordamida zich bo‘lib tuproq ustini egallagan holda o‘sadi.

Mirzacho‘lning tashqi qismi uchta geomorfologik rayonga (Yettisoy tomonli janubiy qavat, Sirdaryoning zamonaviy vodiysi, dashtning g‘arbiy chegarasi–qizilqumoldi tekisligi)

bo‘linishiga mos ravishda o‘simliklar majmuasining uchta tipga bo‘lingan: qiyoc o‘tli-qo‘ng‘irboshli, sho‘rtobli va sho‘rxokli o‘simliklar.

Sirdaryoning to‘qay-qayir qismlarida ajriq, qizil qiyoc, qizilmiya, qamish, botqoc o‘simliklari, butasimonlar: yovvoyi jiyda, suvtol, turong‘il, jing‘il va ildiz-mevali o‘t-o‘simliklarining ko‘plab turlari uchraydi [2.33; 12-16-b.]. Sirdaryo vodiysida o‘tloqi o‘simliklar, butalar ko‘proq tarqalgan, chunki viloyatining asosiy qismi tekisliklar va daryoning I-II terrasalaridan tashkil topgan.

Mirzacho‘l tekisligining asosiy qismi chala cho‘l o‘simliklaridir. Bularga yantoq, shuvoq, qamish, ajriq, burgan, sarsazan, qizilmiya, yulg‘un, kovul, boshqoli efemer va boshqa ko‘plab o‘simliklar hozirgacha o‘tib kelmoqda. Katta yerlarni egallagan qo‘riq yerlar Sirdaryo viloyati hududida deyarli uchramaydi, shuning uchun bu o‘simliklar zahkashlar, kanallar va dala chetlarida saqlanib qolgan.

Ye.P.Korovin [2.71; 401-420-c.] Markaziy Osiyo o‘simliklari haqida ma‘lumot bergan. Uning fikricha, irrigatsiya suvlari natijasi Mirzacho‘l florasida katta o‘zgarishlar yuz bergan. Sug‘orishlar natijasida iqlimning barcha elementlari o‘zgaradi: harorat pasayadi, havoning namligi ko‘tariladi. Bu esa o‘simliklarning tarqalishiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

A.Ergashevning ilmiy-tadqiqot ishlari [3.16; 14-16-c.] Mirzacho‘l kollektor-zovurlarida tarqalgan o‘simliklar haqida bo‘lib, ushbu o‘simliklar tavsifi keltirilgan. Zovurlarda tarqalgan o‘simliklarning zararli jihatlari, uni tozalashning samarali usullari bayon etilgan. Suv o‘tlari sonining mavsumiy o‘zgarib turishi, suv havzalarining ekologik sharoitlari, kollektor va zovurlarning ifloslanishi bo‘yicha ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Mirzacho‘l suv havzalarida 766 ta tur va shakldagi suv o‘tlari uchrashi aniqlangan. Suv o‘tlari zovurlarni foydali hajmini qisqartiradi, ularni loyqalanishi va botqoqlanishini tezlashtiradi, suv oqimini pasaytiradi, kollektor-zovur tizimini samaradorligini kamaytiradi.

Tuproqdagi hayvonlar organizmining asosiy funksiyasi organik moddalarni o‘zgartirishdir. Tuproc paydo bo‘lish jarayonida tuproc hayvonlari bilan birga, yer ustki hayvonlari ham ishtirok etadi. Tuproc muhitida asosan umurtqasizlar va sodda hayvonlar uchraydi. Tuproc jonivorlari ikkiga bo‘linadi: biofaglar, ya‘ni 1) tirik organizmlar bilan oziqlanuvchilar; 2) saprofaglar, oziqlanishi uchun tayyor organik moddalardan foydalanuvchilar. 1 ga tuprocqa 1 mln sodda hayvonlar, 1 m² ga o‘nlab chuvalchang va saprofaglar to‘g‘ri keladi.

Yomg‘ir chuvalchanglari har yili o‘z ichagidan turli tuproc iqlim sharoitiga ko‘ra, 50 t dan 600 t gacha tuprocni o‘tkazadi. Ularning ekskrementi tuprocqagi gumusning miqdorini orttiradi va tuprocning xossalarini yaxshilaydi. Tuprocqagi boshqa sodda hayvonlar esa organik moddalarni parchalab, gumifikatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Yerqazir hayvonlar tuproc pastki qismi va ustki qismini aralashtirishi natijasida xossalarini va relyefni ancha o‘zgartirishi mumkin. Do‘ngchalarning paydo bo‘lishi namlik va tuzlarning qayta taqsimlanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa tuproc xossalarining turlicha shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonning boshqa hududlari kabi Mirzacho‘l vohasining hayvonot dunyosi yetarlicha o‘rganilgan. O‘zbekiston FA Zoologiya va parazitologiya instituti olimlari

5-Fevral, 2026-yil

tomonidan V.V.Yaxontov rahbarligida 1962 yilda «Mirzacho‘l hayvonot dunyosi» nomli to‘plam chop etildi [2.64; 176-c]. Ushbu to‘plam Mirzacho‘l hayvonlarining tarqalishi, inson faoliyati natijasida ro‘y bergan o‘zgarishlar haqida ma’lumotlarni qamrab olgan.

T.A.Pavlenko [2.81; 22-c.] inson xo‘jalik faoliyati natijasida faunaning ham o‘zgarib ketishini ta’kidlaydi. Mirzacho‘l yerlarini o‘zlashtirish natijasida tabiiy holda uchraydigan umurtqali hayvonlarning turi va soni ham kamayib borgan.

Xulosa. Tuproq hayvonlari o‘simlik qoldiqlarini sodda birikmalargacha qayta ishlaydi, tuproqni aralashtiradi va yumshatadi, oziqa tartibotini yaxshilaydi, tuproqni ekskrement bilan boyitadi. Buning natijasida hayvonlar, o‘simliklarning, ayniqsa, mikroorganizmlarning hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan sharoitni doimo yaratib boradi.

ADABIYOTLAR:

1. Zakirova S.Q. Fitomelioratsiya yo‘li bilan tuproqlarni meliorativ holatini yaxshilash. -J. Tuproqshunoslik. - 2023, - № 4. - B. 45-51.

2. G‘afurova L.A., Karimov A., Maxkamova D.Yu. Fermentativnaya aktivnost serozemno-lugovyx pochv i vliyanie na nix biomelioratsii s ispolzovaniem lakrisy (Glycyrrhiza Glabra L.). O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi jurnali. - Toshkent, - 2019. - №3. - S. 31-36.

3. Batirov X.A., Turdimetov Sh., Nurillaeva R.B. Ecological Role of Different Siderate Crops in Improving Soil Properties. American Journal of Agriculture And Horticulture Innovations. Volume 03 Issue 011-2023. pp 01-06.

4. Turdimetov Sh.M., Musurmanova M.M., Urazalieva M.D., Khudayberdieva Z.A., Esanbayeva N.Y. Morphological features of mirzachol oasis soils and their changes. acta innovations, 2024, 52, 1–8. <https://doi.org/10.62441/ActaInnovations.52.1>.

5. Turdimetov Sh., Musurmanova M. Properties of Soils located in different Geomorphological Conditions. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 11-2022. pp 01-06.

6. Turdimetov Sh.M. Evolyusiya oroshaemyx lugovyx pochv Mirzachulskogo oazisa. // O‘zbekiston biologiya jurnali. □Toshkent, 2019.□№3. –S. 61–64.

7. Musurmanova M.M. Turdimetov Sh.M. O‘simlik resurslari yordamida tuproq fermentativ holatini yaxshilash.

“Fundamental va amaliy mikrobiologiyaning holati va rivojlanish istiqbollari: yosh olimlar nigohi” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. -Toshkent. -2024 yil, -25-26 sentabr. -B. 371-372.

8. Turdimetov Sh.M., Musurmanova M.M. Tuproqlarning biologik faolligini turli xil ekinlardan foydalanib yaxshilash. “Fundamental va amaliy mikrobiologiyaning holati va rivojlanish istiqbollari: yosh olimlar nigohi” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. - Toshkent. -2024 yil, -25-26 sentabr. -B. 430-432.

9. Musurmanova M.M. Turdimetov Sh.M. Sideratlarining tuproq unumdorligini oshirishidagi ahamiyati. // Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2024. 7 – Tom, 3 – Son. B. 95-97.

5-Fevral, 2026-yil

10. Musurmanova M.M. Turdimetov Sh.M. Siderat ekinlarni ekishda begona o‘tlarning tarqalishini oldini olish va ularga qarshi agrotexnik kurashish choralari. // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2024. 28-son. B. 72-75.

